

Hazrati Hifa va Hazrati Suhayb

Madinaning ayollari juda go'zal, ochiq chexrali edilar. Ularning orasida Hazrati Hifa, axloqi, taqvosi va go'zalligi bilan boshqa ayollandan ajralib turardi. U shunchalik samimiy va taqvodor bir ayol ediki, ayollar uni jonlari kabi yaxshi ko'rardilar. O'g'li, aka va ukasi bo'lgan ayollar u bilan qarindosh bo'lish uchun harakat qilishar, ba'zilar esa hattoki o'z juftlariga kelin qilishni xohlardilar. Oraga odam qo'yib, qo'lini so'rardilar. Hazrati Hifaning hayosi-yu, taqvosi uzoq o'lkalarga qadar yetib borgan edi. Tabiblar-u, tujjorlardan tortib, vazirlar va sultonlar ham navbatda turardilar. Ammo Hazrati Hifa, hattoki Najoshiy kabi bir imperatorni ham rad etib, faqatgina Allohning rizosini istardi. Haridorlarinig keti uzilmas, ba'zilari oyog'i tagiga gilamlar solsa, ba'zilari javohirlar to'kardi... Qizil tukli tuyalarni eshigi tagiga bog'lab ketgadiganlarni-yu, saroy kalitlarini oldiga tashlaydiganlarni aytmasa ham bo'ladi. Lekin, Hazrati Hifa bularga qayrilib ham qaramasdi.

Bir kun, Fahri koinot alayhissalomning oldilariga borib:

- “Ey Allohning Rasuli! Menga, Jannatga olib boradigan amallarni o'rgating.” dedi.

Hazrati Hifa, Payg' ambarimizni “Tunlari ibodat qil, kunduzlari ro'za tut.” kabi maslahatlarni beradilar deb o'ylagandi. Lekin Rasulalloh sallalohu alayhi va sallam umuman kutilmagan gapni aytgan edilar:

- “Avval turmush qurishing kerak. Zero, bu bilan diningning yarimini himoyaga olgan bo'lasan.” dedilar.

Hazrati Hifa bu gapni eshtib shoshib qolgan bo'lsa ham buyuk bir taslimiyat bilan bo'ynini bukdi va:

- “Siz menga kimni munosib ko'rsangiz, men shunga roziman” dedi.

Ma'lumki, Hazrati Hifa oddiy, hammaga o'xshagan bir ayol emasdi. Uni nikohiga olishi kerak bo'lган inson ham, oddiy bo'lmasligi kerak edi. Fahri koinot alayhissalom birovga umid ham bermadilar, birontani umidini so'ndirmadilar ham. Har doimgidek oddiy va qulay tarzda masalani hal qildilar:

- “Ertada masjidga birinchi kelgan inson bilan turmush qur.” dedilar.

Bu barcha sahobalarga ma'qul keldi. Ertada uyg'onish uchun barchalari o'zlaricha tayyorgarchilik ko'rdilar. Ushbu xabar Hazrati Suhaybning xam qulog'iga yetib bordi lekin u parvo qilmadi ham. Cunki u kambag'al va kimsasiz bir inson edi. Uyjoyi yo'q edi, qornini qiyinchilik bilan to'ydirardi. Ba'zan daraxt tagida, ba'zan esa masjidlarda tunardi. Uzun bo'yiga qaramay shunchalar zayif edi-ki, shamol biroz qattiq essa, oyoqlarini yerdan ko'tarib yuborardi. Allohnning qudratiga qarangki, o'sha tunda Alloh barcha sahobalarga chuqr uyqu berdi, Hifanining haridorlari ham uyquga yengildilar. Fahri koinot alayhissalom har doimgidek tong yorishmasdan masjidga borib baxtli sahabani kuta boshladilar...

Shu payt eshikdan bir soya ko'rinish, masjidga Hazrati Suhayb kirib keldi. Fahri koinot alayhissalom namozdan keyin Hazrati Hifani chaqirtirib natijani bildirdilar.

Hifa esa buyuk bir taslimiyat bilan qabul qildi. Habibimiz sallallohu alayhi va sallam go'zal bir hutba o'qib, nikohlarini o'qidilar. So'ng omadli sahoba Suhaybga qarab:

- "Ey Suhayb! Endi ayolingga bir so'vg'a ol va qo'lidan tutib uyingga olib bor" dedilar.

Suhayb radiyallohu anh choraszilik bilan qo'llarini ikki yonga ochib:

- Lekin... meni bir dirham kumushim ham, sig'inadigan bir uyim ham yo'q." dedi.

Hazrati Hifa esa juftining bo'ynini bukib, boshi egilishiga yo'q qo'ymadi, ichida o'n ming dirham kumush bo'lgan bir chiroqli bezatilgan halta berdi va:

- "Falonchi yerdagi ko'shkimni sizga hadiya qildim." dedi.

Olamlarning payg'ambari alayhissalom bu manzaradan juda ta'sirlanib ularning xaqqiga xayrli duolar qildilar.

Suhayb o'sha kuni Madina ko'chalarida yurdi. Kechga yaqin uyalgan holda ko'shkgaga qaytib, o'zi uchun tayyorlangan dasturxonadan bir ikki xurmo oldi va:

- "Ey Hifa, bilaman, sen men uchun topilmas bir ne'matsan. Men esa sen uchun faqatgina dardman. Men shukur qilishim kerak, sen esa sabr qilishing kerak. Xohlaysanmi, bugungi tunni toat va ibodat ila o'tkazamiz? Zero Sarvari olam ayahissalom:

"Jannatda baland bir chordoq bor. U yerda faqatgina shukur qiluvchilar va sabr qiluvchilar o'tiradilar" deb buyurganlar." dedi.

Hazrati Hifa rozi bo'ldi.

Joynamozlarini solib tun bo'yi ko'z yoshlar to'kib ibodat qiladilar, qalblarini zikr ila oydinlatadilar. Jabroil alayhissalom bu vaziyatni Payg'ambarimiz

alayhissalomga bildirib, ularni Allohning Jannati va jamoli bilan mujdaladi. Ertasi kuni tongda, Fahri koinot alayhissalom namozdan so'ng Suhaybni yonlariga o'tqazib:

- “Ey Suhayb! Tundagi xolatni o'zing aytib berasanmi yoki men aytib beraymi? dedilar.”

Suhayb ko'zlarini quyiga egdirib past ovoz bilan:

- “Allohning Rasuli eng to'g'risini biladi” dedi.

Rasululloh sallallohu alayhi va sallam unga:

-Xushxabar sizlarga! Ikkizingiz xam Jannatiysizlar va Allohning jamolini ko'rasizlar.” dedilar.

Suhayb buni eshtib darhol sajda qildi va:

- Robbim! Modomiki meni mag'firat qilgan bo'lsang, yana takror gunohlarga aralashmasimdan jonimni ol.. deb yolvordi.

Alloh taolo uning bu duosini qabul qildi. Suhayb sajda qilgan holatida birdan qimirlamay qoladi. Masjidagilar bu manzarani ko'rib yig'lab yubordilar.

Rasululloh sallallohu alayhi va sallam esa:

“Sizlarga yana xam xayratlanarli bir narsa aytaymi?

Hozirgina Hazrati Hifa ham ruhini Haqqa taslim qildi...” deb buyurdilar.

Janoza namozlarini Sarvari olam Muhammad alayhissalom o'qidilar va ularni yonma-yon tuproqqa qo'ydilar.

Qabr ustiga kichkinagina ikki taxta qo'yib, biriga:

“Shukur qilganlardan Suhayb” ikkinchisiga esa “Sabr qilganlardan Hifa” deb yozdilar.